

TIL VA MADANIYAT

ISSN 2181-922X

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saldumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Uşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali - lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi - ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:

Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief:

Nodir Jurakuziev

Executive secretary:

Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Нозлия Нормуродова

Теоретические вопросы антропоцентризма в контексте развития современной лингвистической науки.....6

Muqaddas Abdurahmanova

O'zbek va turk tillaridagi leksik omonimlarni lingvokognitiv aspektda tadqiq etish asoslari.....26

Elçin İbrahimov

Günümüzde Türk Devlet ve Topluluklarında Ortak İletişim Dili Sorunu...44

Eldar Asanov

Turk-run bitiklari ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo turklarida ijtimoiy status, Ijtimoiy notenglik va xotira kategoriyalarini tushunish manbasi sifatida.....57

Hasamuddin Hamdard

Afg'oniston o'zbek tili va adabiyotiga matbuotning ta'siri.....77

Adabiyotshunoslik

Oybarchin Abdulhakimova

Abdulla Oripov lirik konsepsiyasining adabiy-estetik muhit bilan mushtarakligi.....85

Mahira Hajiyeva

Ufq tushunchasi hamda adabiyotda utopik va distopiya tushunchalarining kesishishi.....100

Sotsiologiya. Psixologiya

Sabohat Kalanova

O'zgaruvchan jamiyatda avlodlar almashinuvi jarayonlarining differentsiatsiyasi.....112

Tarix. Manbashunoslik

Azizullah Aral

Qadim Xurosondagi Navoiy obidalarining bugungi ko'rinishi.....124

CONTENT

Linguistics

Nozliya Normurodova Theoretical Issues of Anthropocentrism in the Context of the Development of Modern Linguistic Science.....	6
Muqaddas Abdurahmanova Basics of Research of Lexical Homonyms in the Uzbek and Turkish Languages in the Linguocognitive Aspect.....	26
Elchin Ibrahimov The Problem of Common Communication Language in Turkish State and Community Today.....	44
Eldar Asanov Old Turkic Inscriptions as a Source for Understanding the Categories of Social Status, Social Inequality, and Memory among Early Medieval Turks in Central Asia.....	69
Hasamuddin Hamdard The influence of the Press on the Uzbek Language and Literature of Afghanistan.....	77

Literature

Oybarchin Abdulhakimova The commonality of Abdulla Oripov's lyrical Conception with the literary-aesthetic environment.....	87
Mahira Hajiyeva Concept of Horizon and the Intersection of Utopian and Dystopian Visions in Literature.....	100

Sociology. Psychology

Sabohat Kalanova Differentiation of Processes of Generational Exchange in a Changing Society.....	112
--	-----

History. Source studies

Azizullah Aral Today's View of Navoi Monuments in Ancient Khorasan.....	124
---	-----

Turk-run bitiklari ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo turklarida ijtimoiy status, ijtimoiy notenglik va xotira kategoriyalarini tushunish manbasi sifatida

Eldar Asanov¹

Abstrakt

Ilk o'rta asrlarda turklar siyosiy va harbiy kuchga ega bo'lib, yirik imperiya qurib borishi asnosida resurslarning va hokimiyatning asosiy qismini o'z qo'lida birlashtirgan siyosiy elita hamda ularning tayanchi bo'lgan harbiy qatlam ajralib chiqqan. Ular harbiy kuch, shuningdek, mahalliy elitalar bilan kelishish, o'rta qatlam aristokratiyasini resurs taqsimotiga va boshqaruvga faol jalb qilish orqali murakkab boshqaruv tizimini yaratishga erishgan. Bu tizim ham ko'chmanchi imperiyalarning eng yaxshi tajribasini jamlagan, ham mahalliy elitani turk elitasiga integratsiya qilish imkoniyatini bergan.

Qadimgi turklar jamiyati, birinchidan, imperiya qurish jarayonida, ikkinchidan, bo'ysundirilgan xalqlar bilan aloqalar asnosida ularning ba'zi an'alarini, ijtimoiy qadriyatlarini o'zlashtirgan, yangicha ijtimoiy reallik shakllantira olgan. Buning natijasida siyosiy elita, o'rta aristokratiya va omma o'rtasidagi tafovut kattalashib borgan. Shu bilan birga, ma'naviy sohada o'zgarishlar ijobiy bo'lib, madaniy ko'tarilishga olib kelgan – yangi dinlar, san'at turlari, madaniyatlar, yozuvlar, yozuv an'analari o'zlashtirilgan; qadimgi turklarda yozuv asosan individual, oilaviy va sulolaviy xotira saqlash uchun xizmat qilgan bo'lsa, imperiya davrida legitimatsiyaga xizmat qila boshlagan, sedentarizatsiya va tobe o'lkalarga o'rnashib, bu yerdagi xalqlar bilan aloqalar o'rnatilish asnosida esa endi yozuv ma'muriy boshqaruvda, tanga zarb qilishda, xo'jalik yuritishda, yuridik kodifikatsiyada, madaniy va diniy hayotda ishlatila boshlangan.

Kalit so'zlar: *tabaqalanish, ijtimoiy qatlamlar, siyosiy elita, harbiy qatlam, o'rta qatlam aristokratiyasi, boshqaruv tizimi, yozuv, turk-run yozuvi, tarixiy xotira, legitimatsiya, O'rxun-Yenisey bitiklari, Talas bitiklari, O'rta Osiyo turk-run bitiklari, Bilga xoqon, Yo'llug' tegin.*

¹Asanov Eldar Enverovich – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi.

E-pochta: eldarassanov88@gmail.com

Iqtibos uchun: Asanov, E. E. 2024. "Turk-run bitiklari ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo turklarida ijtimoiy status, ijtimoiy notenglik va xotira kategoriyalarini tushunish manbasi sifatida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 57 – 76.

Kirish

XIX asr oxirida, *Mo'g'ulistonda* eng yirik turk-run bitiklarini deshifrovka qilish va talqin etish bo'yicha birinchi muvaffaqiyatli tajribalardan so'ng bir necha yil o'tib, *Turkiston* hududidan ham ushbu yozuv namunalari topildi. Qadimgi turkiy tilning yangi yodgorliklarini katta ishtiyoq bilan o'rganishga kirishgan rus va fin sharqshunoslarining sa'y-harakatlari bilan Talas daryosi vodiysidagi qabrtosh epitafiyalari tavsiflandi, tadqiq etildi, ular mazmuni va xususiyatlariga ko'ra *O'rxun-Yenisey bitiktoshlariga* yaqinligi aniqlandi [Массон 1936, 5–15].

Keyinchalik *Rossiya Turkistoni* hududidagi qadimgi turkiy epigrafik topilmalarga bo'lgan qiziqish ma'lum sabablarga ko'ra sezilarli darajada kamaydi. Biroq sovet davrida arxeologlar turk-run yozuvi namunalari topishda davom etdilar. XX asrning 50–70-yillarida osori atiqalarga yana bir bor qiziqish kuchaydi, topilmalarning ro'yxatlari tuzildi [Заднепровский 1967: 270–274], yozuvlarning tavsifi va o'qilishi jamlangan to'plamlar nashr etildi [Джумагулов 1963], yozuvlar tilining grammatik tuzilishini o'rganishga birinchi urinishlar amalga oshirildi [Батманов 1971].

Bugungi kunda fanga *Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston* va *O'zbekiston* hududidan topilgan turk-run yozuvlarining kattagina to'plami ma'lum. Biz 96 ta ana shunday yodgorlikni o'rganib, tavsiflab bergan edik [Асанов 2023]. Bundan tashqari, oxirgi yillarda O'zbekiston hududidan yangi topilmalar aniqlandi [Сам-дов, Насриддинов 2022, 89–96]. Bu yozuvlarning katta qismi qisqa bo'lib, bir nechta (nisbatan kattaroqlari bir necha o'nlab) belgidan iborat. Faqat ko'p satrli *Talas* epitafiyalari nisbatan to'liq talqin qilsa bo'ladigan to'kis matnlardan iborat. Balki shuning uchundir, bu matnlar korpusi qadimgi turklarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy tarixini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarga deyarli jalb qilinmaydi.

Biroq, bizning fikrimizcha, bu yodgorliklar mohiyatan g'arbiy turklarning kichik autentik, mahalliy yozma manbalarining asosiy qismini tashkil etishini inobatga olsak, ular tahlil uchun material bo'lib xizmat qilishi, VII–IX asrlarda mintaqada hukm surgan maishiy va ijtimoiy hayot haqida kichik, ammo qiziqarli tafsilotlarini ochiqlashga yordam berishi mumkin. *O'rta Osiyo* hududidan topilgan bitiklarda g'arbiy turklarning iqtisodiy hayoti, qarindoshlik munosabatlari, bo'sh vaqtdagi mashg'ulotlari hamda kundalik faoliyati tafsilotlari aks etgan.

Bundan tashqari, bitiklarda jamiyatdagi tabaqalanish, notenglik, turli qatlamlarning o'zaro munosabatlari aks etgan.

Qolaversa, bu yodgorliklar ularning buyurtmachilari bo'lgan qatlamlar vakillarining mavqeyi, qarashlari, bu qatlamlarning jamiyatdagi o'rni haqida ma'lumot beradi. Nihoyat, topilmalar orqali biz yozuv jamiyatda bajargan ma'naviy, ijtimoiy funksiyalarni, bu funksiyalarning ijtimoiy stratifikatsiya bilan korrelyatsiyasini tushunamiz.

Yozuv. Oilaviy xotiradan siyosiy legitimatsiyagacha

O'rta Osiyo hududidan topilgan turk-run bitiklari, lingvistik va paleografik material taqdim etishdan tashqari, g'arbiy turklar jamiyatining ijtimoiy hayoti, ijtimoiy stratifikatsiyasi to'g'risida ham ko'p ma'lumot berishi mumkin. Avvalo, bir narsani esdan chiqarmaslik kerak – ilk o'rta asrlarda hali ommaviy savodxonlik bo'lmagan, yozishni biluvchilar, yozuvdan foydalanuvchilar oz bo'lgan. Odamlar bugungi kabi har kuni yozuv, matn bilan to'qnash kelmagan; umumiy ta'lim, media, ommaviy yozma adabiyot, tez-tez hujjat to'ldirish yoki imzolash ehtiyoji bo'lmagan zamon va makonda zotan aholining katta qismi savodxon bo'lishiga zarurat tug'ilmagan.

Shu sababdan bo'lsa kerak, VI–IX asrlarda (aslida undan oldingi davrlarda ham) yozuvga munosabat hozirgidan boshqacha bo'lgan; yozuv, matn kundalik ehtiyoj emas, balki ma'lum nufuzni, ijtimoiy mavqeni ko'rsatadigan vosita bo'lgan. Yozuvlar ma'lum sabablarga ko'ra, muayyan an'anaga muvofiq ma'lum sirtlarga tushirilgan. Ilk o'rta asrlar turk olamida yozuvning asosiy ijtimoiy funksiyalaridan biri marhumlar haqidagi xotirani abadiylashtirish bo'lgan. Buni turk-run bitiklari korpusining asosiy qismini va eng yirik matn namunalari aynan qabrtoshdagi yozuvlar tashkil etishidan bilsa bo'ladi. U davrda *Markaziy Osiyoda*, garchi huquq va xo'jalik hujjatlarini yuritish an'anasi bo'lsa-da, ammo byurokratiya hozirgiday keng qamrovli, odatiy ish bo'lmagan; katta ehtimol bilan turk jamiyatlarida tug'ilgan va o'lgan odamlar qayd qilib borilmagan. Oilaviy shajara, oilaning marhum a'zolari haqidagi xotira katta ehtimol bilan og'zaki shaklda mavjud bo'lgan va avlodlar almashgani sayin eskiroq avlodlar haqidagi ma'lumot unutilib ketishi xavfi bo'lgan. Shu sabablarga ko'ra bo'lsa kerak, qadimgi turklarda marhumning qabrtoshiga u haqda, uning hayoti va yaqinlari haqida qisqa ma'lumot yozdirish urfga kirgan. Ma'lum ma'noda bu an'ana zimmasiga yuklangan vazifani bajardi – aynan u tufayli bugungi kunda VI–IX asrlarda yashagan, ammo hukmron tabaqaga mansub bo'lmagani, katta siyosatda ishtirok etmagani

bois solnomalarda esga olinmagan yuzlab odam haqida bilamiz, ularning hayoti borasida ma'lumotlar orqali esa qadimgi turk jamiyatining turli jihatlarini o'rganamiz. Shu tufayli bitiktoshlarni qaysidir ma'noda personal tarix yozishning dastlabki tajribasi deb baholasak bo'ladi.

Tabiiyki, qabrga esdalik toshini qo'ydirish, unga matn yozdirish qadimgi turk jamiyatining har bir a'zosi qila oladigan ish bo'lmagan: bu ma'lum xarajat talab qilgan, qolaversa, yuqorida aytilganidek, hamma ham savodli bo'lmagan (hatto, yuqori tabaqaga mansub odamlar orasida ham savodxonlik u darajada yuqori bo'lmagan bo'lsa ehtimol), o'z kuchi bilan matn yoza olmagan – toshga matn o'yib yozish bilan shug'ullanuvchi maxsus *bitikchilar* xizmatidan foydalanilgan. Turli zamon va makonda jamiyatlarda odamlar boyligi, daromadiga qarab tabaqalanishi va jamiyatning boyroq a'zolari ma'lum imtiyozlarga ega bo'lishi tarixda ko'p kuzatilgan holat. Hatto XIX asrda *G'arbiy Yevropa* jamiyatlarining ko'pchiligida boylik senziga ko'ra saylovda qatnashish mumkin bo'lgan, ya'ni ovoz berish huquq emas, imtiyoz hisoblangan. Qadimgi turk jamiyatlarida bitiktosh o'rnatish ana shunday imtiyoz hisoblangan bo'lsa ajabmas.

Taxminimizcha, marhumning boshiga qabrtosh qo'ydirishda, moddiy imkoniyatlardan tashqari, ma'lum ijtimoiy iyerarxiya ham rol o'ynagan; qabri ustiga matn yozilajak shaxs uni eslashlariga, esdalik matni yozilishiga "munosib" hisoblanishi kerak bo'lgan. Siyosiy voqealarda, urushlarda qatnashmagan, katta ijtimoiy nufuzga ega bo'lmagan, ma'lum boylikka, davlatga sohib bo'lmagan jamiyat a'zolari qabriga bitiktosh o'rnatishga moddiy imkoniyat ham topolmagani bilan bir qatorda, ijtimoiy mavqeyi ham bunga yo'l qo'ymagan bo'lsa kerak.

Shunday qilib, bitiktoshlarning borligi va ularning soni cheklangani bizga turk jamiyatida ma'lum ijtimoiy iyerarxiya va o'ziga xos boylik senzi bo'lganini ko'rsatadi.

Bir savol tug'ilishi mumkin: aholining ko'pchiligi o'qishni va yozishni bilmasa, unda qabrtosh matnlari kim uchun yozilgan? Bu savolga javob bitiktoshlar o'rnatishning ijtimoiy funksiyasidan kelib chiqadi: ko'p hollarda matnni biron o'qishi ko'zda tutilmagan, muayyan shaxs qabrida bunday esdalik matni borligining o'zi uning mavqeyini ko'rsatib bergan, ya'ni bu obyekt ma'lum ijtimoiy-determinativ vazifa bajargan. *Qadimgi Sharqda – Misrda, Mesopotamiyada, Ahamoniylar imperiyasida* monumental matnlar yaratilishining sabablari ham tadqiqotchilar tomonidan shu bilan

tushuntiriladi – bu matnlarni keng omma o'qiy olmasa-da, ularning borligiyoq hukmdorlarning qudratini, aristokratiyaning mavqeyini namoyish etgan.

Bu masalaga o'z vaqtida V. Bartold e'tibor qaratgan edi. Uning yozishicha, *Bilga xoqon* butun xalqni u qoldirgan bitiklarni o'qishga chaqirishi savodxonlik bu darajada keng tarqalganidan dalolat bermaydi [Бартольд 1998, 10]; biz murojaatni badiiy priyom va, balki, savodxonlikni oshirishga chaqiriq deb talqin qilgan bo'lar edik.

Bitiklarning mazmuniga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda tilga olingan shaxslar, odatda, ma'lum unvon va epitetlarga, shuningdek, "er otiga" (*ār atı*), ya'ni janglardagi qahramonliklari ortidan olingan faxriy ismlarga ega, bular esa aslzoda, amaldor va harbiy qatlamlarning atributlari to'plamidir.

Bitiktosh o'rnatish amaliyoti keyinchalik hukmron qatlamga yetib borganmi, yoki aksincha, quyiroqda turuvchi o'rta aristokratiya elitaning odatini o'zlashtirganmi – buni aniq aytish qiyin (*Bug'ut* va *Xuis Tolg'oy* bitiklari datirovkasidan kelib chiqsak, ikkinchi taxmin haqiqatga yaqin), ammo ma'lum davrda, aniqrog'i, VII asr oxiri – VIII asr boshlarida *Ikkinchi Sharqiy turk xoqonligida* hukmdorlar, ularning oila a'zolari va oliy toifali mulozimlarning qabrlariga monumental bitiktoshlar qo'yish an'anasi shakllangan. Bu ulkan stelalar o'rta qatlam aristokratiyasi sharafiga o'rnatilgan toshlardan bir necha barobar katta, ulardagi matnlar esa qisqa esdalik bo'lmay, haqiqiy solnoma yoki batafsil hikoya xarakteriga egadir; matnlarda, qahramonlarning hayoti va faoliyatidan tashqari, his-tuyg'ulari, dunyoga, siyosatga munosabati aks etgan. Albatta, bunday matnlar originalligi, tarixiy va badiiy qiymatiga ko'ra ma'lum shablon (marhumning ismi, uning vafotidan afsuslanish formulasi, qarindoshlari va yaqinlarining ro'yxati) asosida yozilgan qisqa bitiktoshlardan ancha yuqori turadi. Shu bois monumental bitiklar badiiy ahamiyatga ham ega – ularning mualliflari qadimgi turkiy tilni badiiy jihatdan sayqallab, tugal kompozitsiyaga ega hikoyalar yaratib, bir-ikki asrdan so'ng shiddat bilan o'sib boradigan turkiy tilli yozma badiiy adabiyotga zamin hozirlaganlar.

Tabiiyki, hamma ham, hatto boy qatlam vakillari ham bunday yirik bitiktoshlar buyurtma qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan (balki bunga ehtiyoj ham sezishmagandir). Shu tufayli bitiktoshlarning ko'pchiligi muayyan tartibdagi, ma'lum takrorlanuvchi formulalardan iborat, ko'pincha she'riy shaklga ega qisqa matnlardan tarkib topgan. Shunga ko'ra qabr epigrafikasining

ijtimoiy ahamiyati va funksiyasiga ko'ra ham ikkiga ajratish mumkin: o'rta qatlam aristokratiyasiga tegishli qisqa matnli qabrtoshlar ijtimoiy mavqeni ko'rsatib berishga xizmat qilgan bo'lsa, hukmron qatlamlarga oid monumental bitiklar siyosiy vazifalarni ko'zlab tayyorlangan va legitimatsiyaga xizmat qilgan, ya'ni bitiktosh atalgan shaxslarning siyosiy hokimiyatga bo'lgan haq-huquqini isbotlovchi hujjat sanalgan. Tabiiyki, ayni paytda monumental bitiklar mamlakatning siyosiy tarixini, xoqonlar va sarkardalarning faoliyatini qayd etish, ular haqidagi xotirani saqlab qolish vositasi ham bo'lgan. Ya'ni bitiktoshlar, xoh o'rta aristokratiyaga oid bo'lsin, xoh hukmron tabaqaga, ijtimoiy va siyosiy xotirani shakllantirish va hujjatlashtirish instrumenti ham hisoblangan. Bunda turklar hali *xitoyliklar* singari solnomalar yuritish g'oyasigacha yetib bormagani, ammo og'zaki xotiraning kamchiliklarini va unutilib ketish xavfini anglab, yozma xotira yaratish an'anasiga o'ta boshlagani ko'rinadi. Boshqa tomondan, xotirani saqlashgina emas, uni konstrukt qilish – turklar va ularning davlati tarixi yuzasidan siyosiy elitaning nuqtayi nazarini ifodalash, keng omma orasida bo'lmasa, yuqori tabaqa vakillari orasida yagona siyosiy va tarixiy xotira kartinasini shakllantirish maqsadi ham ko'zlangan bo'lishi mumkin.

G'arbiy Turk xoqonligi: yozuvning siyosiy funksiyadan ma'muriy va maishiy funksiyaga o'tishi

G'arbiy turklarda ham yozuvdan siyosiy maqsadlarda foydalanish fenomeni kuzatilgan, ammo, sharqiy qardoshlaridan farqli ravishda, ular monumental qabrtosh stelalari o'rnatmagan, balki turk-run alifbosidan tangalarda foydalana boshlagan. Bu an'anani turklar ular bilan bir davlatda yashagan so'g'dlardan o'zlashtirgan bo'lsa kerak, zero so'g'd tilidagi yozuvlar tangalarda juda ko'p uchraydi.

Turk-run alifbosi yordamida tanga yozuvlari bitilganini dalillovchi ikki topilma 2002–2004-yillarda *Quva* xarobalari hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar jarayonida topilgan ikkita jez tanga mavjud (Quva-6-7). Tangalarning old tarafiga yumaloq yuzli, qisiq ko'zli, yupqa murtli, sochlari yelkasiga tushgan, to'g'riga va biroz o'ngga qarab turgan hukmdor tasvirlangan. Orqa tarafdan esa  shaklidagi tamg'a hamda uni chambar qilib o'ragan so'g'dcha qator o'rin olgan [Бабаев 2019, 5–13, 153–157]. Old tarafga, hukmdor tasvirining ikki yoniga pastdan tepaga yo'nalgan, uch belgidan iborat turk-run xatidagi matn tushirilgan.

Tangalar old tarafining chap qismida saqlangan turk-run

harflari chizmasi quvidagi ko'rinishga ega: X^d . G'. Boboyorov tomonidan bu matn X^d tarzida tiklanadi. Mazkur uch belgining o'qilishi shubha uyg'otmaydi – *qağan* "xoqon". Asosiy qiyinchilik so'zning birinchi harfi qisman saqlanganidadir – uning tiklanishi taxminga asoslanadi [Kubatin 2011, 459–471]. Ikkinchi harfning yozilishi Talas bitiklaridagi g^{f} grafemasiga ancha yaqin turadi. Nima bo'lganda ham, bu deshifrovkaga tayanib, ilk o'rta asrlarda *Farg'ona vodiysida* turkiy hukmdorlar o'zlari zarb qilgan tangalarga unvonlarini turk-run xatida yozganini aytishimiz mumkin, u bilan bir paytda so'g'd yozuvi ham ishlatilgani esa bu an'ana so'g'dlar orqali kirib kelganidan dalolat berishi mumkin.

O'ng tomondagi turkcha matnning ikkita chizmasi mavjud bo'lib, ular 2002 va 2004-yillarda topilgan tanga nusxalarida saqlangan harflarga asoslanadi: 1) X^d ; 2) X^d . 1-harf g^{f} ning teskari varianti yoki k^{f} deb o'qilishi mumkin. Ikkinchi belgi n^{d} yoki u^{d} bilan qiyoslanadi. Oxirgi harfni ham m^{d} , ham n^{d} deb talqin qilish mumkin.

Shu tariqa, matnning ikkinchi qismi bir-biridan tamomila farq qiladigan ikki o'qilishga ega: 1) X^d – *g-n-m*; 2) X^d – *k-u-n*. Ayrim tortishuvli paleografik va imloviy jihatlardan kelib chiqib, biz so'zni *qanim* "xonim" (hukmdorim) deb o'qishni taklif qildik. Bunday yondashuvni shaxsiy suhbatda G'. Boboyorov ma'qulladi. Shu tariqa, Quva-6-7 matni to'liq shaklda *qanim qağan* "xonim xoqon" deb o'qiladi [Асанов 2020, 49–55].

Ko'rinib turibdiki, g'arbiy turklar elitasi yozuv madaniyatidan siyosiy dividendlar olishning boshqa yo'lidan borgan: ular tangalarga o'z ismlari va unvonlarini tushira boshlagan, bu bilan ham turk-run yozuv an'anasini saqlagan, ham mahalliy siyosiy institutlarga moslashgan va shu yo'l orqali ikki tomonlama legitimlikka intilgan. Bu o'rinda turk-run xati yana legitimatsiyaga xizmat qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Yana bir jihati, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida keng iste'molda bo'lgan pulda turk-run yozma an'anasining aks etishi bu yozuv bilan barcha qatlamlar tanishishini ta'minlagan, ya'ni tangalar amalda turk-run yozuvining keng omma qo'liga yetib boradigan tayyor "reklama"si bo'lgan. Ammo bunday tangalar juda oz miqdorda topilgani bu "reklama" qay darajada keng tarqalgani haqida xulosa qilish imkonini bermaydi. Yangi topilmalar chiqishi hamda ularning tarixiy interpretatsiyasi bu emissiya kim tomonidan zarb etilgani, tanga ishida turk-run xatidan qay darajada foydalanilgani borasidagi savollarga javob topishda

qo'l keladi. G'arbiy turklar tanga zarbida so'g'd xatidan foydalangani, so'g'd alifbosi vositasida hukmdorlarning ismlari va unvonlarini tangalarda aks ettirganini bilamiz. *Quva-6-7* kamida ma'lum bosqichda bu an'anani turk-xatiga ko'chirishga urinish bo'lganini ko'rsatadi.

G'arbiy turklarga oid yozma manbalar faqat bitiktoshlar va tangalar bilan cheklanmaydi. O'rta Osiyodan *Ikkinchi Sharqiy turk xoqonligi*, *Uyg'ur* va *Qirg'iz xoqonliklariga* xos klassik ko'rinishdagi bitiktoshlar faqat *Talas* hududidan topilgan yodnomalar guruhidan iborat. Bu viloyatdan g'arbroqda – Farg'ona vodiysida asosan ko'zalarga qisqa yozuvlar bitilganini ko'ramiz. Bu turdagi topilmalarning asosiy qismi Farg'onaga mansub bo'lsa-da, ayrim o'rnaklar *Toshkent* yaqinidan, shuningdek, *Qashqadaryodan* aniqlangan. Shu asosda bu hududlarda turk-run yozuvi boshqa ijtimoiy funksiyalarni bajarganini faraz qilish mumkin.


Bizningcha, g'arbiy turklarning ikki regional guruhida yozuv ikki shaklda, ikki xil maqsadda ishlatilgani ular orasida ma'lum ijtimoiy farqlar vujudga kelganidan dalolat beradi. Tarixiy *Yettisuv* viloyati hududida joylashgan *Talas* bo'ylarida turklar *Mo'g'u-liston* va *Yenisey bo'yidagi* maishiy hayoti va madaniy amaliyotlarini saqlab qolgan bo'lsa, Farg'onada, aftidan, yerlashuv yoki shaharlashuv jarayonida turklarda boshqacha ijtimoiy ehtiyojlar tug'ilgan. Endilikda bitiktoshlar yaratish emas, sopol buyumlarga ma'lum yozuvlarni tushirish dolzarblik kasb eta boshlagan. Vodiydan boshqa alifbolarda (shu jumladan, so'g'd alifbosida) ham sopol buyumlarga yozish amaliyoti mavjud bo'lganini inobatga olsak, g'arbiy turklar bu borada ham mahalliy madaniy ko'nikmalarni o'zlashtirgan, deb aytishimiz mumkin.

Yuqorida bitiktoshlar buyurtma qilish ko'proq hukmron qatlam va ulardan quyiroqda turuvchi aristokratiya uchun xos bo'lganini aytdik. Ko'zalardagi bitiklar endilikda yozuvdan foydalanuvchi aholi ko'payganidan guvohlik berishi mumkin. Bunday matnlardan ba'zilarini tahlil qilsak, aristokratiya yozuvdan foydalanishda davom etayotganiga amin bo'lamiz – bu matnlarda unvon va epitetlarga ega shaxslar esga olinadi, boshqaruvga oid tushunchalar uchraydi. Misollar keltirsak.

Qirg'izistonning O'zgan shahri shimoli-g'arbidagi *Sho'rabashat* yodgorligidan topilgan, uncha katta bo'lmagan idish sirtiga yozilgan bitik diqqatga sazovor. 1956-yili A.N. Bernshtam bitikni *O'sh* muzeyida ko'zdan kechirib, turk-run xatida yozilganini tasdiqlagan. Uning fikrini I. Erdeyi va S.G. Klyashtorniy qo'llab-quvvatlagan

[Заднепровский 1967, 270–274]. I.L. Kizlasov esa bu yozuvni türk-run xati namunalari ro'yxatiga qo'shmagan.

Yodgorlikning ikkita chizmasi mavjud: Yu.A. Zadneprovskiy harflarni  tarzida ifodalagan bo'lsa, I. Erdeyi biroz boshqacharoq chizma keltiradi: . Ya. Xarmatta belgilarni klassik türk-run alifbosi qoidalariga muvofiq tiklaydi:  Uning tarjiması: *Uri Uluğ Apa Ökädä* "Uri Ulug' Apa O'kadan" [Harmatta 1988, 39–41]. Matn shaxsning ismi, unvoni va epitetidan iborat bo'lib, ashyo kim tomonidan tortiq qilinganini bildirsa kerak.

Qal'ai Kofirdan aniqlangan bitikda ham katta ehtimol bilan aslzoda yoki bevosita boshqaruvda qatnashuvchi shaxs tilga olinadi. A.N. Bernshtam ushbu bitikda saqlanib qolgan belgilarni  tarzida tiklaydi va quyidagicha transliteratsiya qiladi: *trn:liš*. Olim matn boshidagi *t* harfini tushirib qoldirib, qolgan qismini quyidagicha o'qiydi: *Aran ališ* "saroy solig'i" [Бернштам 1956, 54–58]. U *aran* so'zini "saroy" deb talqin qiladi. Vaholanki, bu so'z "*Devonu lug'otit-turk*"da "otxona, molxona" deb tushuntiriladi [Насилов 1969, 51]. Ushbu ma'lumotdan kelib chiqib, eng kamida tarjima noto'g'ri amalga oshirilganini ta'kidlab o'tish mumkin.

Yozuvda ko'proq *O'rxun* bitiktoshlarida uchraydigan ayirish belgisi – : qo'llanilganini e'tiborga olish lozim. Bu uning ancha tartibli, professional yozilganidan darak beradi. Lekin bu holatda matn boshidagi *t* harfini *aran* "saroy" so'zidan oldingi so'zga taalluqli deb hisoblab bo'lmaydi, chunki u harf o'zidan oldingi so'zdan : belgisi bilan ajratilgan bo'lishi kerak edi. Bitta qisqa matn ichida ushbu qoidaga bir o'rinda rioya etilib, boshqa o'rinda rioya etilmasligini taxmin qilish, bizningcha, asossizdir. Shundan kelib chiqqan holda, ayirish belgisidan oldingi uchta harf bitta so'zni tashkil qiladi, deb hisoblaymiz. Qadimgi turkiy tilda ushbu harflar guruhi bilan ifodalanadigan bitta so'z mavjud – *Turan*. Matnning to'liq o'qilishi: *Turan ališ* "Turon. Soliq". Bu o'rinda *Turan* toponim bo'lmay, soliq to'layotgan kishining ismini ifodalasa kerak. Bu nom türk-run epigrafikasida uncha keng tarqalmagan, lekin *Yenisey* guruhiga mansub *Bariq-1* yodgorligida *Yigin Alp Turan* ismi tarkibida uchraydi [Насилов 1969, 260].

Shu bilan birga, sopol siniqlaridagi ba'zi yozuvlar maishiy xarakterga ega. Bu yozuv madaniyatining iste'molchilari kengayganidan – hunarmandlar va turli kasb egalari maishiy maqsadlarda undan foydalana boshlaganini, aristokratiyaning yozma matnga monopoliyasi tugaganidan dalolat berishi mumkin.

Quva-1 bitigini ko'rib chiqaylik. *E.R. Tenishevning* o'qishi [Te-

нишев 1973: 263–265]:

Transkripsiya	Tarjima
Ona äkin aranı: ana äg	Ekin uchun ko'za. Mana

Bu matn, shubhasiz, maishiy axborot tashimoqda.

Quva-2 matni uchun uch xil o'qish taklif qilingan. Topilma muallifi *G.P. Ivanovning* o'zi undagi matnni *aŋa aš alıŋ* "unga osh oling" deb o'qigan. *N. Rahmonov* uning versiyasiga biroz o'zgarish kiritgan: *aŋ aš alıŋ* "qush oshini oling" [Рахмонов, Матбобоев 2002: 17]. *Aŋ* so'zining ma'nosiga aniqlik kiritish kerak – "Devonu lug'otit-turk"ka ko'ra, bu so'z umuman "qush" ma'nosida kelmaydi, balki qushning bir turini anglatadi; mazkur qushning yog'idan davolovchi vosita sifatida foydalanishgan [Насилов 1969, 46]. Leksemaning yana bir ma'nosi – "ov qilinadigan qush".

A. Kubatin va *G'. Boboyorov* taklif qilgan o'qish bizga eng mantiqli va asosli bo'lib tuyulmoqda: *aŋa ašalıŋ* "shu yerda/shu idish ichidan ovqatlaning" [Kubatin 2011, 459–471]. Nima bo'lganda ham, taklif qilingan versiyalar ham o'zaro juda yaqin bo'lib, yozuvning maishiy mazmuni shubha uyg'otmaydi.

Quva-4 matni (𐰽𐰪𐰇), ko'rinishidan, bitta so'zni ifodalaydi. Ikki o'qish versiyasi ilgari surilgan – *al ič* "ol, ich" (*G'. Boboyorov*) va *alıŋ* "oling" (*A. Kubatin*) [Kubatin 2011, 465]. Oxirgi harf yozilishidan ko'proq č 𐰽 belgisiga muvofiq keladi. Lekin, *A. Kubatinning* o'zi bir o'rinda ta'kidlab o'tganidek, *ič* fe'li an'anaviy ravishda *ič/či* 𐰽 belgisi vositasida ifodalangan, u esa Farg'ona turk-run xatida mavjud bo'lib, *Quva-3* dan o'rin olgan. To'g'riroq tarjima, nazarimizda, quyidagicha: *alıč* "baxt, baxtli ulush". Bu so'z faqat bitta turk-run yozuvi yodgorligida – *Abakan* daryosi bo'yidan topilgan steladagi matnda uchraydi [Насилов 1969, 35].

Qizil Pilov matnini *A.N. Bernshtam* quyidagicha transliteratsiya qiladi: *krpŋč* 𐰽𐰪𐰇. Bunda birinchi harfni *k* 𐰽 saqlanib qolmagan so'zning yakuni deb hisoblaydi, negaki uni "keyingilari bilan qo'shib o'qib bo'lmaydi" [Бернштам 1956, 54–58]. Bu o'rinda yozuv qadimgi turk-run xatining klassik namunalarida qayd etilgan imloda bitilgan, deb o'ylagan olim yana bir bor o'zini boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadi va muvaffaqiyatli o'qishni amalga oshira olmaydi. Biz bu yozuv imlosiga biroz boshqacha yondashishni ma'qul topdik: *rč* 𐰽 harfi, aftidan, bu yozuv turida qo'llanilmas edi. Farg'ona guruhiga mansub boshqa bitiklarda ham ushbu harfni uchratmadik. Boshqa barcha belgilarni bemalol *k* 𐰽 bilan qo'shib o'qisa bo'ladi.

Bizningcha, satr bitta so'zdan iborat. *A.N. Bernshtam*

tomonidan η deb talqin qilingan oxirigidan bitta oldingi belgi, fikrimizcha, biroz shakli o'zgargan ı/i ↑ harfidir. Bu tuzatishlardan keyin yozuv *krpič* deb transliteratsiya qilinadi, bu esa qadimgi turkiy tilda faqat bitta ma'noni anglatishi mumkin – *kirpič/kärpič* "g'isht". Ushbu bitik ham, shubhasiz, maishiy xarakterga ega bo'lib, hunarmand qatlamga oid bo'lsa kerak.

Yana boshqa ba'zi bir matnlardan misol keltiramiz: *yilan* "ilon" (*Munchoqtepa-1*). Aftidan, bu yozuv qadimgi turkiy hayvon muchaliga taalluqlidir [Асанов 2013, 109–113]; *arığ* "toza, pok" (Ko'ktosh) [Kubatin 2011, 459–471]; *kirpič/kärpič* "g'isht" (*Qizil Pilov*) [Асанов 2015, 7–26]. *Quva-3* bitigini (𐰇𐰺𐰍𐰆𐰚𐰏𐰚𐰚𐰚𐰚𐰚𐰚) o'qishga urinish N. Rahmonov tomonidan amalga oshirilgan [Рахмонов, Матбобоев 2002, 18–19]. Ammo shu paytgacha uning qoniqarli deshifrovkasi ilgari surilmagan. *O'rta Osiyoda* tarqalgan yana bir ijtimoiy-madaniy amaliyot – savodsiz hunarmand ko'za sirtiga yozuvga o'xshatib harflar yozib chiqishidir. Xususan, kushon davriga oid, baqtr xatida yozilgan mana shunday o'qilmaydigan psevdoyozuv ma'lum¹. O'qish imkoniyati bo'lmaganiga qaraganda, *Quva-3* ham ana shunday tarzda savodi yo'q hunarmand tomonidan yozuvga o'xshatib chizib chiqilgan runalardan iboratdir.

Yuqoridagi misollar yozuv madaniyati yuqori tabaqaga xizmat qilibgina qolmay, "pastga tushgani", hunarmand qatlam tomonidan ishlatila boshlanganini ko'rsatadi.

Yana bir muhim hujjat VIII asr boshlariga mansub *Mug'* qal'asi arxividan chiqqan. Bu noyob topilma asosan so'g'd tilida yozilgan hujjatlar kolleksiyasidan o'rin olgani turklar so'g'd an'analarini o'zlashtirgan holda turk-run xatidan hujjatlarda foydalana boshlaganini qisman tasdiqlaydi.

Qo'lyozma beshta to'liq qatordan iborat, oltinchi qatorda esa beshta harf saqlangan; qog'ozga tush bilan bitilgan. Bitik yomon saqlangan. Rangning o'chib va yuvilib ketishi oqibatida qog'ozning to'qqiz joyida harflar siyqalashib ketgan. Har bir qatorda 35 tagacha harf bo'lgan. Faqatgina birinchi qatorda 34 tadan 27 ta harf saqlanib qolgan.

A.N. Bernshtamning tarjimasi [Бернштам 1951, 65–75]:

¹ Dashti Jumdan topilgan bronza qo'ng'iroqchaga baqtr xatida 17 ta belgi tushirilgan. B. G'afurovning taxminicha, bu epigrafik topilma o'qib, talqin qilish mumkin bo'lgan matn emas, balki savodsiz hunarmand tushirgan belgilar yig'indisidir [Гафуров 1989 I, 210].

Transkripsiya	Tarjima
1. bitim ... im ... Udun yätmiş ... ät är yontim ... anda	Tilxat (men yozmoqdaman) ... Udun: yetmish ... mening o'nta qizil-sariq otim (uyurim) ... u yerda
2. äl ... ämül tär äd ... yaş ät oru ... adindiq äš	El ... to'g'ri aytadigan bo'lsak: mulk ... olachiporlarning yosh go'shti ... boshqa jamoatdoshlar
3. ...	...
4. ... äñ ätäd ...	... betlar so'lib qoldi (ozib ketdi) ...
5. ... inanç	... ishonch (to'g'ri)
6. Panj	Panch

A.N. Bernshtam tiklagan va tarjima qilgan matndan kelib chiqsak, matn xo'jalik xarakteriga ega ekani oydinlashadi. Garchi hujjat hukmron saroyida saqlangan, demakki, elitaga mansub bo'lgan esa-da, harqalay, xo'jalik munosabatlarini tartibga solishga taalluqli mazmunga ega. Bundan kelib chiqib, turk-run xati VIII asrga kelib maishiy mazmunga ega yana bir amaliyotga xizmat qila boshlagan, *Panchda* so'g'dlar bilan birga istiqomat qilgan turkiy aholi xo'jalik ishlarini hujjatlashtirishda o'z ona tilidan foydalan-gan, deb aytish mumkin. Ayni paytda, bu turk-run yozma an'anasi-ning funksionali yanada kengayganini, bu alifbodan *Turfan uyg'ur idiqutligidagidan* ancha oldin yuridik kuchga ega hujjatlar yozishda foydalanish boshlanganini ko'rsatadi.

Turk-run yozuvi diplomatiya xizmatida?

Turk-run xatida nafaqat yuridik, balki siyosiy hujjatlar tuzilganiga ishora qiluvchi bir diqqatga sazovor tafsilot. Ma'lumki, Mug' arxividan o'rin olgan siyosiy yozishmalar namunalari so'g'd tilida. Bu borada, ayniqsa, *Panch* hokimi *Divashtich* arablarga qarshi ittifoqchilar topish maqsadida *Chochga* yuborgan elchi *Fatufarnning* maktubi diqqatga sazovor. Maktub so'g'd tilida yozilgan, lekin unda *Divashtich* tomonidan xoqonga yuborilgan maktub tilga olinadi: "Va, sohibim, men bu yerga, Choch hukmdori huzuriga yetib keldim. Va, sohibim, men xatlarni ham topshirdim, og'zaki yetkazish kerak bo'lgan narsani ham tudunga, ham yordamchiga to'liq, hech narsani tushirib qoldirmay yetkazdim. Va, sohibim, xoqonga maktubni va Farg'ona podshosiga maktubni Farg'ona tutug'i orqali Farg'ona podshosiga berib yubordim". Bu yerda xoqon deb Ikkinchi Sharqiy turk xoqonligi hukmdori, *Qapag'an xoqonning* o'g'li, *Bilga xoqondan* oldin taxtda o'tirgan *Inal xoqon* nazarda tutilgan. Yuqorida keltirilgan parchada undan oldin tilga olingan Choch *tuduni* ham turkiy sulolaga mansub

Bahodir tudundir [Гафиров 1989 II, 19]. Garchi bizga yetib kelgan xatning o'zi so'g'd tilida bo'lsa-da, unda tilga olingan, Divashtich tomonidan turkiy aslli hukmdorlarga yo'llangan maktublar qadimgi turkiy tilda yozilgani ehtimoli yuqori. Mug'ning o'zidan turkiy tildagi hujjat (garchi u xo'jalik yuritishga oid bo'lsa ham) g'arbiy turklarda o'z tilida qog'oz hujjatlar yozish an'anasi shakllanganini (bu ham so'g'dlar ta'siri bo'lsa kerak) ko'rsatadi. Bundan tashqari, Choch hukmdori so'g'd tilidagi maktubni o'qiy olishiga, yonida so'g'd aslli yoki so'g'd tilini biladigan mulozimlar ko'p bo'lgan deb taxmin qilish mumkin bo'lsa, turk-run xatidan rasman foydalangan va uni monumental epigrafika darajasiga olib chiqqan Ikkinchi Sharqiy turk xoqonligi dinastiga yuborilgan maktub turkiy tilda yozilgan bo'lishi, bizningcha, mantiqan asoslangan xulosadir.

Qadimgi turkiy tilning o'ziga xos ayricha rasmiy uslubi qog'oz hujjatlar davridan oldin ham mavjud bo'lgan. Uning ba'zi formulalari O'rxun bitiktoshlarida uchraydi, keyinchalik ular *Sharqiy Turkistondan* ko'p miqdorda topilgan qog'oz hujjatlarga ko'chadi. Bunday bitiklar (agar hukmdor nomidan yozilgan bo'lsa) odatda *sabım* yoki *sözüm* "so'zim" deb boshlanadi. Ana shunday formula *Atlatx-1* bitigida uchraydi [Аманжолов 2003, 96]: *Sözüm* "So'zim". Graffitida yolg'iz shu so'zning o'zi saqlanib qolgan bo'lsa ham, bu kamida g'arbiy turklarga umumturkiy rasmiy til me'yorlari ma'lum bo'lganidan darak beradi.

Yozuv an'anasida madaniy qarashlar va o'zliklarning aks etishi

Yuqoridagi tahlilga jalb etilgan yozma yodgorliklardan tashqari, g'arbiy turklarga oid, asosiy qismi Qozog'iston, Qirg'iziston hududidan, ayrim oz sonli namunalari O'zbekistondan (masalan, *To'zbuluq*) aniqlangan yana bir guruh bitiklar ham ma'lum. Ularning ko'plari qoyatoshlarga, ba'zilar xarsangtoshga bitilgan. Yozish uchun qo'llanilgan yangi sirt – qoyatoshlar yuzasi bu yodgorliklarni boshqa ijtimoiy va madaniy kontekstda interpretatsiya qilishga undaydi. Ular ko'proq sayyohlar, savdogarlar va harbiylar safari chog'ida qoldirgan esdalik yozuvlariga o'xshaydi: aksariyatida ismlar keltirilgan, ba'zi birovlarida madaniy va mifologik qarashlar hamda tilak formulalari ifodalangan. Ba'zi o'rinlarda bu yodnomalar esdalik uchun yozilgani aniq aytib o'tiladi: *İşit taşğa qarağ üçün ād ār* "Iliq toshga xotira uchun yozildi" (*Quljabasi-1*) [Bazilhan 2014, 1–12].

Bu bitiklarda aks etgan axborotni bir necha sinfga bo'lish

mumkin [Аманжолов 2003, Alimov 2014; Bazilhan 2014, 1–12]:

- ismlar keltirilgan: *Är atım Adınç On Oq* "Er otim Adinch O'n O'q" (*Ko'ksoy-4*); *Är atı Aq Kişi* "Er oti Oq Kishi" (*Quljabasi-1*); *Är atı Aq İnçü* "Er oti Oq Inju" (*Tamg'alitosh*); *Är atım Oq* "Er otim O'q" (*Bayanjurak*);

- ona yurt, qarindoshlar va vatandoshlar tilga olingan: *Munda ilgärü äb qoş* "Bu yerdan sharqda ko'chma uyimiz (chodirli qarorgohimiz)" (*Ko'ksoy-4*); *Atı külüg yurtım* "Oti mashhur yurtim" (*Qo'ytubak*); *Abam* "Akam, qarindoshim" (*Jarma*); *Äş ältäş* "Esh, eldosh" (*Ili-5*). Bunday matnlarda sayyohning yashash joyida qoldirgan xotiralari va yaqinlariga qaratilgan nostalgiya aks etgan, desak bo'ladi;

- tilak formulalari keltirilgan: *Är azıq için* "Er, ovqat ye, ich" (*Ili-5*); *Bünim yas* "Mungimni yoz" (*Marqa*); *Mänkü äl bolzun* "Mangu el bo'lsin" (*Qo'ysari*);

- ov motivlari aks etgan: *Ab albağ* "Ov ko'ngilxushlikdir" (*Atlax-2*); *Qısıq äñ* "Siquvga olingan ov hayvoni, ov qushi" (*Ili-3*); *Äñ* "Ov hayvoni, ov qushi" (*Ili-4*);

- diniy va mifologik obrazlar tilga olingan: *Ayuñ yatğu äbi* "Oy uxlaydigan uy" (*Tovqarin-1*); *Kök Täñridäki täglük tägin yärdäki yägrän adıqlıq üni özi bi* "Ko'k yuzidagi ko'rkli shahzodaning yer yuzidagi ayiqqa oid ovozi va o'zi bir" (*Oq O'lo'n*); *Kü yaruq aq börü qutı* "Shonli yorug' oq bo'ri quti" (*Chiyimtosh-A*)¹.

Bunday noyob axborotni o'zida mujassam etgan yozma yodgorliklar g'arbiy turklarning madaniy saviyasini, mashg'ulotlarini, mifologik qarashlarini, sayohat amaliyotlarini ochib berishi mumkin. Ularni o'rganish nafaqat ijtimoiy stratifikatsiya va yozuv an'anasi turli qatlamlar uchun bajargan vazifalarni, balki g'arbiy turklarning madaniy qadriyatlarini modellashtirishga yordam beradi. Aytaylik, bu ma'lumotlardan ov keng tarqalgan, ammo [faqat] tirikchilik maqsadida emas, ko'ngilxushlik uchun murojaat etiladigan mashg'ulot hisoblanganini, *Ko'k Tangri* kulti jonli va aktual bo'lganini, bo'ri va ayiqqa mifologik, poetik va, balki, totemistik obraz sifatida qaralganini bilib olishimiz mumkin. Qolaversa, bu yozma manbalar ham, qabrtosh bitiklari singari, o'tmish odamlarining personal tarixini qayd qilish tajribasidir, faqat bunda turklarda keng tarqalgan, odamning vafotidan so'ng qabriga tarixini yozish uslubiga emas, balki yangicha sirtlar va uslublarga

¹R.Alimov *yaruq* leksemasini Yoruq degan atoqli ot sifatida talqin qiladi [Alimov 2014, 106–107]. Bizningcha, bu yerda oq bo'ri mifologik obraziga "yorug', yorqin" deya sifat berilmoqda.

murojaat etilgan. Bunday yondashuvning muhim tomonlaridan biri – xatni odatda odamning o'zi tushirgan yoki, savodi bo'lmasa, bevosita uning so'zlari asosida yozuv ishlangan, ya'ni jonli xotiradan foydalanilgan. Bunday matnlar konkret shaxslarning qarashlarini standart klishe'lar yordamida o'xshash qilib yozilgan bitiktoshlarga nisbatan aniqroq aks ettiradigan autentik manbalardir.

Ammo bu yozuvlarning ko'pi qisqa, ba'zilari bir nechta o'zaro teng tarjima versiyalariga ega, bu ularni ishonchli manba sifatida tahlilga tortishga xalaqit beradi. Shu tufayli bu o'rinda bevosita mavzuimizga aloqador xulosani berish bilan cheklanamiz. Unga ko'ra, yozuvdan yuqorida tilga olingan uch ijtimoiy guruh (sayyohlar, savdogarlar va harbiylar) o'z safar va sarguzashtlarini yozma shaklda hujjatlashtirish, o'zi haqidagi xotirani saqlash yoki boshqalarga yetkazish maqsadida turk-run xatidan foydalangan. Sayyohlar qoyalarda esdalik bitiklarini qoldirishi nafaqat turklarga, balki ularga qo'shni bo'lgan xalqlarda ham qayd etilgan. Xususan, *Ladakhdan* samarqandlik ziyoratchi *Noshfarnning* ana shunday esdalik yozuvi topilgan; unda muallif *Tibetga* tomon yo'l solganini ma'lum qilgan [Гафиров 1989 I, 330].

Shunday qilib, bu borada g'arbiy turklar o'sha davrda mintaqaga xos bo'lgan amaliyotni qo'llaganini aytishimiz mumkin. Bu xulosa ayni paytda g'arbiy turklar jamiyatida turk-run yozuvidan foydalanuvchi qatlamlar ro'yxatini yanada kengaytiradi. Ayni paytda, turk-run xatining ijtimoiy vazifalari qatoriga madaniy axborot tashish, estetik zavq berish yoki madaniy tushunchalarni saqlash kabilarni kiritish imkonini beradi, buni, o'z navbatida, yozma badiiy adabiyot vujudga kelishi yo'lida qo'yilgan navbatdagi qadam desa bo'ladi.

O'rta Osiyo arealiga oid yozma manbalarning asosan maishiy buyumlarga, qisman sopol siniqlariga yozilgan yana bir kichik guruhi mavjud. Ular g'arbiy turklarning madaniy ko'nikmalari va og'zaki badiiy ijod haqidagi bilimlarimizni anchayin boyitadi. Misol tariqasida Qozog'iston hududidan topilgan ikkita jez ko'zguga tushirilgan hikmatli gaplarni (balki maqollarni) keltiramiz: *Är çüçük ö(d)siz ölüť* "Erkak sharob ichishi – bevaqt o'lishi" (*Urjar*); *İñi künisin ärsär qutı basar* "Do'sti hasadini kamaytirsam qut bosar (baxt kelar)" (*Zevakino*) [Аманжолов 2003, 199–202]¹. Ammo bu epigrafik topilmalar ijtimoiy stratifikatsiya hamda turli qatlamlar yozuvga qanday ijtimoiy vazifalar yuklagani borasida tahlil uchun qo'shimcha material bermaydi.

¹Urjar yozuvi uchun boshqa o'qish ham taklif etilgan [Бернштам 1948, 107–113].

Xulosa

Tahlilimiz yakunlariga ko'ra quyidagi asosiy xulosalarni qilish mumkin:

- qadimgi turklarda yozuvdan, asosan, siyosiy elita va undan quyida turuvchi aristokratiya, shuningdek, harbiy qatlam foydalangan;

- bu qatlamlar vakillari dastavval qabrtoshlarga esdalik yozuvi tushirish an'anasini shakllantirgan bo'lib, buning ijtimoiy funksiyasi, birinchidan, marhum, uning hayoti, faoliyati, qarindoshlari va yaqinlari haqida yozma xotirani saqlab qolish, ikkinchidan, uning ijtimoiy mavqeyini namoyon etishdan iborat bo'lgan. Bu jarayonlar og'zaki tarixdan yozma tarixga o'tishdagi dastlabki bosqichlarni aks ettiradi;

- sharqiy turklarning xoqonlari, ularning yaqin qarindoshlari, yirik amaldorlari va sarkardalari sharafiga o'rnatilgan, yozuv tushirilgan mahobatli stelalar, yuqoridagilardan tashqari, siyosiy vazifalarni ham bajargan: sulola yoki davlatning siyosiy tarixini yozish va saqlash, xalqning umumiy tarixiy xotirasini yaratish, hukmdor qatlam legitimligini dalillash, yirik arboblarning siyosatga va tarixga qarashlarini ifodalash va h.k.;

- g'arbiy turklar yozuvdan legitimatsiya uchun foydalanishda boshqa yo'ldan borgan – ular tangalarga dastlab so'g'd xatida, so'ng turk-run xatida hukmdorlarning ismlari va unvonlari aks etgan yozuvlar tushirgan;

- g'arbiy turklarning bir qismi bitiktoshlar qo'yish an'anasini davom ettirgan bo'lsa, sharqroqda – asosan o'troq viloyatlarda yashovchi aholi orasida turk-run xati yangi formatlarga ko'chgan – uning yordamida sopol buyumlarga yozuvlar tushirilgan, bu bilan yozuvga yangi ijtimoiy vazifalar yuklangan; shu asnoda turk-run xatining qo'llanish doirasi kengayib, o'rta qatlam aristokratiyasi, amaldorlar va harbiylardan tashqari, hunarmandlar ham yozuv an'anasini o'zlashtirgan;

- turk-run xatida qog'oz hujjatlar yaratish amaliyoti ham vujudga kelgan; bizga yetib kelgan bu turdagi yagona hujjat xo'jalik yuritish bilan bog'liq bo'lsa-da, turk-run yozuvidan siyosiy yozishmalarda ham foydalanilganiga ishora qiluvchi ma'lumotlar bor;

- tanga, sopol va qog'ozga matn yozish an'anasini turklar ular bilan bir davlatda yashab kelgan so'g'dlarning boshqaruv institutlari hamda madaniy ko'nikmalaridan o'zlashtirgan bo'lsa kerak;

- mintaqada tarqalgan yana bir amaliyot – qoyatoshlarga yozuvlar tushirish g'arbiy turklarda ham keng tarqalgan, bunda yozuv an'anasi yangi qatlamlar – sayyohlar, savdogarlar va ekspeditsiyadagi harbiylarga yetib borgan; qoyatosh yozuvlari mualliflarning shaxsi, sayohati haqidagi xotiralarni saqlash va boshqalarga yetkazish, ularning yurti va qarindoshlariga nisbatan sog'inchini ifodalash singari ijtimoiy funksiyalarni bajargan;

- O'rta Osiyo turk-run bitiklari korpusi, asosan qisqa matnlardan iboratligiga qaramay, xilma-xilligi bilan ajralib turadi – bu mintaqada yozuv turli qatlamlar tomonidan turli maqsadlarda qo'llanilganini ko'rsatadi; bizga qadar saqlanib qolgan yozma yodgorliklar yuqorida sanalgan qatlamlarning personal tarixini, ijtimoiy hayotini, madaniy saviyasini, qadriyatlarini va dunyoqarashini aks ettiruvchi noyob manbalardir.

Adabiyotlar

- Аманжолов, А.С. 2003. *История и теория древнетюркского письма*. Алматы.
- Асанов, Э.Э. 2023. *Ўрта Осиё турк-рун битикларининг тили*. Тошкент.
- Бартольд, В.В. 1998. *Тюрки. Двенадцать лекций по истории турецких народов Средней Азии*. Алматы.
- Батманов, И.А. 1971. *Таласские памятники древнетюркской письменности*. Фрунзе.
- Гафуров, Б.Г. 1989. *Таджики. Книга I*. Душанбе.
- Гафуров, Б.Г. 1989. *Таджики. Книга II*. Душанбе.
- Джумагулов, Ч. 1963. *Эпиграфика Киргизии. Т. I*. Фрунзе.
- Насилов, В.М. и др. 1969. *Древнетюркский словарь*. Ленинград.
- Рахмонов, Н., Матбобоев Б. 2002. *Ўзбекистоннинг кўҳна туркий-рун ёзувлари*. Тошкент.
- Асанов, Э. 2013. *Некоторые вопросы палеографии рунических надписей Узбекистана*. Тюркологическое искусствовознание: проблемы и перспективы. Тезисы III Международной научной конференции. Баку: 109–113.
- Асанов, Э. 2015. *Опыт исследования эпиграфических надписей Ферганы*. Modern Türklük Araştırmaları Dergisi. Cilt 12, Sayı 4. Ankara: 7–26.
- Асанов, Э. 2020. *Фарғона водийсида топилган турк-рун ёзувлари ҳақида. Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари*. Наманган: 49–55.
- Бабаяров, Г. 2019. *Фергана – как один из центров чекана монет Западно-Тюркского каганата*. ИМКУ. Вып. 40. Самарканд: 5–13, 153–157.
- Бернштам, А.Н. 1956. *Древнетюркские рунические надписи из Ферганы*. Эпиграфика Востока, №11: 54–58.

- Бернштам, А.Н. 1951. *Древнетюркский документ из Согда*. Эпиграфика Востока, №5: 65–75.
- Бернштам, А.Н. 1948. *Новые эпиграфические находки из Семиречья*. Эпиграфика Востока, №2: 107–113.
- Заднепровский, Ю.А. 1967. *Тюркские памятники в Фергане*. Советская археология, №1: 270–274.
- Массон, М.Е. 1936. *К истории открытия древнетурецких рунических надписей в Средней Азии*. Материалы Узкомстариса. Вып. 6-7. Москва-Ленинград: 5–15.
- Сандов, М., Насриддинов, Ш. 2022. *Наманган вилоятидаги янги топилмалар*. Ўзбекистон археологияси, №1 (26): 89–96.
- Тенишев, Э.Р. 1973. *Руническая надпись из Кувы*. Восточная филология, №3: 263–265.
- Alimov, R. 2014. *Tanrı Dağı Yazıtları*. Konya.
- Aydın, E., Alimov R., Yıldırım F. 2013. *Yenisey – Kırgızistan Yazıtları ve Irk Bitiği*. Ankara.
- Harmatta J. 1988. *Doğu Avrupa'da Türk Oyma Yazılı Kitabeler*. Ankara.
- Bazilhan, N. 2014. *Kazakistan'da Bulunan Göktürk Yazıtları hakkında*. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi. Sayı 3/2: 1–12.
- Kubatin, A. 2011. *Özbekistan'da Bulunan Bazı Eski Türk Yazıları Üzerine*. Ötükinden İstanbul'a. Bildiriler, İstanbul: 459–471.

Old Turkic Inscriptions as a Source for Understanding the Categories of Social Status, Social Inequality, and Memory among Early Medieval Turks in Central Asia

Eldar Asanov¹

Abstract

In the early medieval, the Turks emerged as a political and military force, forming a political elite that consolidated the essential components of resources and governance under their control, paving the way for the establishment of large empires. The political elite, along with the military stratum under their command, played a crucial role. They not

¹ Asanov Eldar Enverovich – PhD, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, National Center of Archaeology.

E-mail: eldarassanov88@gmail.com

For citation: Asanov E.E. 2024. "Old Turkic Inscriptions as a Source for Understanding the Categories of Social Status, Social Inequality, and Memory among Early Medieval Turks in Central Asia". *Uzbekistan; Language and Culture* 1: 57 – 76.

only utilized military power but also engaged with local elites, creating a complex administrative system by actively involving the middle stratum aristocracy in resource allocation and management. This system gathered the best experiences of nomadic empires and provided the possibility of integrating local elites into the Turkic elite.

During the process of building empires, the ancient Turks, firstly, assimilated some traditions and social values, forming new social realities through interactions with conquered folks. As a result, there was a significant divergence between the political elite, the middle aristocracy, and the common people. Simultaneously, positive changes occurred in the spiritual sphere, contributing to cultural development – new religions, forms of art, civilizations, writings, and writing traditions emerged. While in ancient Turkish society, writing primarily served individual, family, and ceremonial memory preservation, during the imperial period, it began to play a role in legitimization, settling in sedentary areas, aligning with settled peoples, and initiating relations based on writing in administrative governance, monetary transactions, economic management, legal codification, and cultural and religious life.

Key words: stratification, social stratum, political elite, military stratum, middle class aristocracy, governance system, writing, Old Turkic script, historic memory, legitimation, Orkhon-Yenisei inscriptions, Talas inscriptions, Old Turkic inscriptions of Central Asia, Bilge Khagan, Yollug Tegin.

References

- Amanjolov, A.S. 2003. *Istoriya i teoriya drevnetyurkskogo pisma*. Almaty.
- Asanov, E.E. 2023. *O'rta Osiyo türk-run bitiklarining tili*. Toshkent.
- Bartold, V.V. 1998. *Tyurki. Dvenadsat leksiy po istorii turetskix narodov Sredney Azii*. Almaty.
- Batmanov, I.A. 1971. *Talasskiye pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti*. Frunze.
- Gafurov, B.G. 1989. *Tadjiki. Kniga I*. Dushanbe.
- Gafurov, B.G. 1989. *Tadjiki. Kniga II*. Dushanbe.
- Djumagulov, Ch. 1963. *Epigrafika Kirgizii. T. I*. Frunze.
- Nasilov, V.M. i dr. 1969. *Drevnetyurkskiy slovar*. Leningrad.
- Rahmonov, N., Matboboyev B. 2002. *O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari*. Toshkent.
- Asanov, E. 2013. *Nekotoriye voprosi paleografii runicheskix nadpisey Uzbekistana*. Tyurkologicheskoye iskusstvoznaniye: problemi i perspektivi. Tezisi III Mejdunarodnoy nauchnoy konferentsii. Baku: 109–113.
- Asanov, E. 2015. *Opit issledovaniya epigraficheskix nadpisey Fergani*. Modern Türklük Araştırmaları Dergisi. Cilt 12, Sayı 4. Ankara: 7–26.

- Asanov, E. 2020. *Farg'ona vodiysida topilgan turk-run yozuvlari haqida. Farg'ona vodiysi tarixining dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Namangan: 49–55.*
- Babayarov, G. 2019. *Fergana – kak odin iz sentrov chekana monet Zapadno-Tyurkskogo kaganata. IMKU. Vip. 40. Samarkand: 5–13, 153–157.*
- Bernshtam, A.N. 1956. *Drevnetyurkskiye runicheskiye nadpisi iz Fergani. Epigrafika Vostoka, №11: 54–58.*
- Bernshtam, A.N. 1951. *Drevnetyurkskiy dokument iz Sogda. Epigrafika Vostoka, №5: 65–75.*
- Bernshtam, A.N. 1948. *Noviye epigraficheskiye naxodki iz Semirechya. Epigrafika Vostoka, №2: 107–113.*
- Zadneprovskiy, Yu.A. 1967. *Tyurkskiye pamyatniki v Fergane. Sovetskaya arxeologiya, №1: 270–274.*
- Masson, M.Ye. 1936. *K istorii otkritiya drevnetureskix runicheskix nadpisey v Sredney Azii. Materiali Uzkomstarisa. Vip. 6-7. Moskva-Leningrad: 5–15.*
- Saidov, M., Nasriddinov Sh. 2022. *Namangan viloyatidagi yangi topilmalar. O'zbekiston arxeologiyasi, №1 (26): 89–96.*
- Tenishev, E.R. 1973. *Runicheskaya nadpis iz Kuvl. Vostochnaya filologiya, №3: 263–265.*
- Alimov, R. 2014. *Tanrı Dağı Yazıtları. Konya.*
- Aydın, E., Alimov, R., Yıldırım, F. 2013. *Yenisey – Kırgızistan Yazıtları ve Irk Bitig. Ankara.*
- Harmatta, J. 1988. *Doğu Avrupa'da Türk Oyma Yazılı Kitabeler. Ankara.*
- Bazilhan, N. 2014. *Kazakistan'da Bulunan Göktürk Yazıtları hakkında. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi. Sayı 3/2: 1–12.*
- Kubatin, A. 2011. *Özbekistan'da Bulunan Bazı Eski Türk Yazıları Üzerine. Ötükenden İstanbul'a. Bildiriler. İstanbul: 459–471.*

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni, Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining E.O., ishi joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manhalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*. Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*. Ollim To'laboyev muharrirligida. 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 - 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI - bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 - 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Ijmiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. "Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi". *UZA: O'zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle> havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s).

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year, pp. Price. ISBN: (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

- Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.
- Level 2. Title Style. Italics, 14 Point.
- Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.
- Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two,

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White, Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B. and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE

Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439-58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405-50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*. January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan 0936-raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.03.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturası.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.